# Termiz shahrida muborak Ramazonning iftorlik tadbirlarini o‘tkazish davom etmoqda



Termiz shahrida muborak Ramazonning iftorlik tadbirlarini o‘tkazish davom etmoqda

Davlatimiz rahbari joriy yilning 13 mart kuni viloyatimizga tashrifi chog‘ida o‘ttiz kunlik Ramazon oyida eng og‘ir mahallada kam ta’minlanganlarni taklif qilib, iftorlik o‘tkazish, ko‘ngli o‘ksik, mo‘min-musulmonlarning og‘irini yengil qilish tashabbusini bildirib, bu borada diniy soha ulamolari va mutasaddilariga tavsiyalarini bergan edi.

Xayru-barokat Ramazon oyida bugun 2 aprel kuni shahardagi 4 ta sektor hududida “Guliston", “Saxovat", “Majnuntol" va “Bo‘ston" mahallalari fuqarolari ishtirokida

navbatdagi iftorlik tashkil etildi.

Unda sektor mas’ullari, imom xatiblar, mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, mahalladagi hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, faol xotin-qizlar hamda 600 nafar mahalla fuqarolari ishtirok etishdi.

Ushbu xayrli ishlar shahardagi barcha mahallalarda davom etmoqda.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

Image not found or type unknown

Image not found or type unknown

